

**YOSHLARGA QARATILGAN "BESH TASHABBUS" LOYIHASINING
MAZMUNINI TUSHUNTIRISH VA SHU SOHADA OLIB BORILAYOTGAN
ISHLARNI OCHIB BERISH MASALALARI:MAKTABLARDA KITOBXONLIK
RIVOJLANTIRISH MISOLIDA**

Ne'matullayeva Mahliyo Nasimjon qizi

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Bafoyev Bekzod Bo'ron o'g'li

Buxoro davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Gaypbaeva Gulziya Talgat qizi

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Annotatsiya: *Yoshlarni 5 tashabbus doirasida san'at, madaniyat, adbiyot yonalishlarida rivojlantirish, maktabda bunga sharoit yaratgan holda foydalanishlariga imkon yaratib berish, natijada ularni ham ilmiy, ham badiiy mahoratlarini oshirish. : Yoshlarimizni har sohada rivojlantirish, ularni maktabdanoq yuqoori saviyali kadr etib tayyorlash, kelajakdagi qalb kasblarini to'g'ri tanlay olishlarida, yollarda hamisha olga qadam tashlashlarida kumakdosh bo'lib, ularga yomon oqimlarning qarosidan yuqmasidan oldin ilm ziyosi bilan tafakkurlarini boyitish, to'yintirish hammamizningburchimiz ekanligi misollar asosida ko'rsatiladi. Qator targ'ibot ishlari ochib beriladi. Istiqbolli yo'llari ko'rsatiladi. baqadam bormoqdalar. Tariximizda yorqin iz qoldirgan ajdodlarimizni e'zozlash bilan birga, o'zlari ham tarix zarvaroqlariga yangi sahifalar, yangi ijodlar, yangi kashfiyotlari bugungi kun innovatsiyalari bilan solishtiriladi.*

Kalit so'zlar: *kelajak, yosh avlod, maktab, mikrafon, ustozlar, sharaflı burch, ustoz, kitob, tafakkur, ma'naviy ong, tafakkur, dunyoqarash, me'zon, tarix, burch.*

Har kun, har daqiqa dunyo ajoyib yangiliklar, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan o'zgarishlar bilan boyib bormoqda. Insonlar har sohada bir – biridan o'zishga, oldinda qadam tashlashga, birinchisi va boshqachasi bo'lishga harakat qilmoqdalar. Har bir shaxdam qadamni qo'llab – quvvatlovchi orqa tog'i bo'lmish yurtboshi-yu ota – onasi, mehribon yaqinlari bor ekan, inson mana shundan energiya olib har qanday zo'riga qarshi zo'r bo'lib kurasha olmoqda. Avvallari “ Bizning qo'limizdan kelmaydi”, “Bizga to'g'ri kelmaydi”, “ chet elda boshqacha, ular aqlli odamlar” degan qarashlar bilan boriga ko'nib “ olma pish, og'zimga tush” deb chet eldagilarini bizga yetib kelishini kelishini kutib, havaslanib tura olar edik xolos. Qora tariximiz ongimizga singdirgan qora o'y – xayollar, ma'nan kuchsizlantirib qo'ygandek edi go'yo. Mustaqillik bizga shunday katta in'om bo'ldiki, o'zbek xalqi qaytadan tug'ilgandek, yangi hayotga, yangi imkoniyatlarga ilk qadamlarini tashladi. Bu ilk qadamlarimizga hali yarim asr ham to'lmagan bo'lsa-da, million yillik yutuqlar, million yillik o'zgarishlarga erishdik desak mubolag'a bo'lmaydi. Davlatimiz o'zining qadim tarixiga, shonli o'tmishiga nazar solib, ulardan ilhom va kuch olib shu

darajaga erishdi. Nafaqat, bu botiniy kuch, bebaho jannatmakonimiz ham o'rtta yosh g'ayratida yashayotgan yurtimizni ko'plab ne'matlar, halol rizq – ro'y bilan siyladi. Tomirida buyuklarning qoni jo'sh urib, quyoshning cheksiz nuridan toblanib, yerning shapalog'idan totib o'sgan bu el farzandlari endi rivojlanish, yangilanish borasida dunyo bilan birga qadam – baqadam bormoqdalar. Tariximizda yorqin iz qoldirgan ajdodlarimizni e'zozlash bilan birga, o'zlari ham tarix zarvaroqlariga yangi sahifalar, yangi ijodlar, yangi kashfiyotlar bitmoqdalar. Azal – azaldan biror o'zgacha qobiliyatning guvohi bo'lsak, ularga nisbatan bu iqtidor uning “qonida (genida) bor”, “otameros kasb” degan jummalarni ko'p eshitganmiz va bugungi kun yoshlariga qarab amin bo'lamizki, buyuklik ham bizning qonimizda bor ekan, bunday kuch – qudrat otameros, bobomeros ekan. Mana shu meros vujudida barq urib, yurakdan yurakka, qondan qonga o'tib kelmoqda. Shu “ bebaho merosning merosxo'rlari”, iste'dod sohiblari orasida Namangan viloyatini To'raqo'rg'on tumanining 39-maktab yoshlari ham borligi barchamizni quvontiradi. Nega deysizmi? Buning sabablari ko'p. Bir necha yillardan buyon faoliyat yuritib kelayotgan ushbu maktab ko'pdan ko'p iste'dodlarga ustozlik qildi va bu iste'dodlar zanjiri hali uzilgani yo'q. “Izlagan imkon topar, izlamagan bahona”, - degan hikmat bizga begona emas. Ular qishloq farzandi ekanini, maktabi chet eldagidek zamonaviy emasligini – da bahona qilmadilar. Ularni qonidagi buyuklik kuchi boshqa tengdoshlaridek iste'dodlarini shakllantirishlariga turtki bo'ldi. Maktabimiz yoshlari o'zlarining ikkinchi uylariga aylanib qolgan go'shada o'zlariga kerakli, yuraklariga yaqin sohada izlanib, imkon yarata olyapdilar. O'quvchilarning erta tongdan maktab tomon zavq bilan oshiqishlari, darslarni g'ayrat bilan o'zlashtirishlari uchun katta ruhiy kuch bo'layotgan “maktabimiz ovozi” hammasiga asosiy turtkidir. Chunki, maktabning yurak – yuragiga payvasta bo'lgan yoshlar ovozi yangraydi unda. Yurtimizning har bir shodiyonasida otashnafas tabriklari, tengdoshlari va ustozlarining tavallud ayyomlari uchun ajoyib tabriklar, muborak tong hikmatlari hamma hammaning quvonchiga quvoch qo'shadi. Fan oyliklariga mos tarzda ilm dunyosidagi eng so'ngi yangiliklar, maktabimiz yutuqlari shunday shijoatli yoshlar tilidan o'tli jaranglashi boshqa o'quvchilarga ham ko'tarinkilik, vatanga muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi. Uyg'oqlik va hushyorlikka chaqiradi. Erta tongdan dars boshlangunga qadar jarang sochuvchi vatanni madh etadigan qo'shiq va she'rlar uni tinglagan o'quvchiga shodlik hadya etadi. Ko'tarinki ruh bilan boshlangan kunda har qanday bilim, har qanday kashfiyot va ijod ilhom to'lqinlaridek yoqimli bo'laveradi. Shu onda Hamza Hakimzoda Niyoziyning “ Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida” degan satrlari yodimizga keladi. Chunki ayrim yoshlarni g'aflat uyqusiga tortayotgan onlayn olam shunday taraqqiyot vaqtida insonni ortga tortadi. Lekin “ Qovun qovundan rang oladi”,- deganlaridek, shijoatli yoshlarimizning ziyosi ularni g'aflat uyqusidan uyg'otadi. Maktabimiz “ovozi” Mohinur Nurillayeva va Muhlisa Abduljalilovalar o'z zimmalariga mana shunday mas'uliyatli vazifani o'z iqtidorlari, ustozlarining ko'magi bilan a'lo darajada bajarib kelmoqdalar. Xullas, mikrafon yoshlarda. Endi gapirish navbati ularga yetdi.

Dastlab, uylaridek qarddon maktablarida, ertaga respublika sahnalarida, bora – bora jahon minbarlarida o'z fikrlarini ayta oladigan hurfikr yoshlar bo'lishlariga ishonamiz. Zero, go'zal vatanimizning ertasi uchun shunday iste'dod g'unchalarini parvarish qilish bizning zimmamizga yuklatilgan ekan, “mikrafon”ni ishonib topshiragan yurtimizning sha'niga munosib e'tirof ayta oladiga, nomini jahon sahnalarida jaranglatadigan yoshlar qilib tarbiyalashga va'da beramiz. Prezidentimiz 2020 – yildagi “Yoshlar forumi”da: “Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi mahalla raisi “Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana nima ish qilishim kerak?” degan savollarga javob beradigan, shunday e'tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi.

Aziz farzandlarim! Xalqimiz, Vatanimiz sizlardan buyuk ishlar kutayotganini hech qachon yodingizdan chiqarmang! Yurtning yuksak ishonchi va umidini to'la oqlash, unga munosib bo'lish dunyodagi eng ulug' baxtdir. Shunday sharaf barchangizga nasib etsin, – degan edilar. Mana shunday ulkan ishonch har qaysi o'zbek farzandini ruhlantirmay qoymaydi. Muhammad Xorazmiy aytganidek: “ Sòz – gul, ish – mevadir”. Quruq sòzdan guldan rohatlangan kabi tomosha qilib yoki, eshitib rohatlanilsa, ishning shirin mevasi vujudimizga foydali vitamin kabidir.

Xulosa: Yoshlarimizni har sohada rivojlantirish, ularni maktabdanoq yuqoori saviyali kadr etib tayyorlash, kelajakdagi qalb kasblarini to'g'ri tanlay olishlarida, yòllarida hamisha ol'ga qadam tashlashlarida kòmakdosh bòlib, ularga yomon oqimlarning qarosidan yuqmasidan oldin ilm ziyosi bilan tafakkurlarini boyitish, tòiintirish hammamizning zimmamizdadir. Zero, katta hayotga qadam qòyganlarida yòllarini topa olmay sarson bòlmasinlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O'zbek xalq maqollari”
2. Hamza Hakimzoda Niyoziy she'riyati
3. Prezident nutqi “Yoshlar forumi-2020” dan
4. Авезова, Д. (2022). Инсоният тарихида БУЮК ЛЕВ ТОЛСТОЙ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 17(17). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7234
5. Авезова, Д. (2022). статья Методика преподавания языка иностранным студентам. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 25(25).
6. Abdurasulovna, B. M. (2022). Clinical Features of Rheumatoid Arthritis in Patients at the Age of Older 60 Years Old. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 650-655.
7. Авезова, Д. (2022). МОРФОНОЛОГИЧЕСКИЕ ЯВЛЕНИЯ В РУССКОМ СЛОВООБАЗОВАНИИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).

8. Авезова, Д. (2022). КАКИЕ ГРАММАТИЧЕСКИЕ КАТЕГОРИИ ЯВЛЯЮТСЯ ОБЩИМИ ДЛЯ ЧАСТЕЙ РЕЧИ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ?. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).

9. Авезова, Д. (2022). ОСНОВНЫЕ РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ СТРУКТУРОЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).

10. Farkhodovna, K. F., Rakhmatulloevna, N. U., & Abdurasulovna, B. M. (2022). ETIOLOGY OF CHRONIC RHINOSINUSITIS AND EFFECTIVENESS OF ETIOTROPIC TREATMENT METHODS (LITERATURE REVIEW). *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 377-381.

11. Авезова, Д. (2022). статья Составные части и их выражение в творчестве Абдуллы Каххора. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).

12. Авезова, Д. (2022). Spirituality Маънавият инсонни комилликка етаклайди. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).

13. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 1-4.

14. Mamadjanova, M. U. (2022). О 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOQ 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.